

## PEDAGOGIK MAHORATNING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZIGA XOS KATEGORIYALARI

*Alieva Miyrigul*

*Ajinyoz nomidagi NDPI*

*Pedagogika Fakulteti 1-M kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogik mahorat haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek maqolada pedagogik mahorat, pedagogik mahoratning kategoriyalari, novatirlik, pedagogik ijod, pedagogik faoliyat uslubi, kasbiy bilimdonlik haqida to'liq bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik mahorat, pedagogik jarayon, pedagogik ijod, novatirlik, nutq san'ati, pedagogik texnologiya, innovatsion faoliyat, pedagogik maqsad.

Pedagogika-bu aniq maqsadlar asosida maxsus ijtimoiy institutlar (oila, ta'lim va madaniy tarviyaviy muassasalari) da tashkil etilgan aniq yaxlit pedagogik jarayon sifatidagi ta'limdir. Pedagogika bu holda o'zini pedagogik ta'limning mohiyati, mahorati, qonuniyatlari, tendensiyalri va rivojlanish istiqbollarini o'rganuvchi fan sifatida namoyon etadi.

Pedagogik avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi.

Pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egalashini, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqoralik va kasbiy mavqeini ifodalaydi. Pedagogik mahoratga yetishish pedagogning muayyan shaxsiy sifatleri bilan amalga oshadi.

Pedagogik mahorat o'z ichiga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, maktab haqidagi, ta'lim tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqida keng bilimlarni qamrab oladi.

Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin namunasi sifatida tushuniladi. Pedagogik mahorat hozirgi tadqiqotlarga qaraganda o'ziga xosligi quyidagi kategoriyalarda jamlanadi: pedagogik mahorat, pedagogik ijod, pedagogik novatirlik, kasbiy bilimdonlik, pedagogik faoliyat, pedagogik innovation faoliyat, pedagogik texnologiya, pedagogik maqsad, pedagogik nutq va san'ati.

---- Pedagogik mahorat - bu o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, o'quvchi va talabalarda dunyoqarash qobiliyatini shakllantirish, ularda jamiyat uchun zaruriy bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.

---- pedagogik ijod - pedagogning kasbiy jarayonni samarali tashkil etishga yo'naltirilgan yaratuvchanlik faoliyati. Bunda pedagog har bir tushuntirishda uning o'z hilma-hillikni va jarayon bir tekis, izchillikda borishi muhimligi aks etadi. O'quvchilarga o'rgatayotgan bilimlari navbatma-navbat borishi jarayonning naqadar muhimligi o'z ichiga oladi.

---- Pedagogik novatirlik - pedagogik faoliyatida ilg'or tamoyil yoki g'oyani asoslash, yangi yo'l, usul yoki vositalarni tavsiya qilish, ularni amaliyatga tatbiq etishga qaratilgan ijodiy yondashuv. Bilim darajasini oshirish, zamon bilan hamnafas bo'lib, yangiliklardan hardoiim xabardor bo'lish, ularni samarali foydalanish juda ahamiyatga ega.

---- Kasbiy bilimdonlik - pedagogik faoliyat yuritish uchun zaruru bo'lgan nazariy va amaliy tayyorgalik birligi bo' lib, bunda har bir sahoda yoki mavzuda o'z bilimlarini yetishtirib borishi pedagogning muhim sifatlaridan biri sanaladi.

---- Pedagogik faoliyat uslubi - bu uning o'ziga xosligini aks ettiruvchi, boshqaruv uslubini va o'z-o'zini tartibga solish uslubini va muloqot uslubini, uning mavzusini o'z ichiga oladi. Bunda har bir pedagog ta'lim berish jarayonida o'z uslubiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

---- Pedagogik innovation faoliyat o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontsepsiyasini shakllantishni jamlaydi. Har bir yangilik, yangi usul va g'oyalarning asl maqsadi, foyda yoki zararini oldinnan tahlil qila olishi muhim sanaladi.---- Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchining ta'lim tarbiya vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishdir. Bunda har bir jarayon o'ziga xos bo'lib, o'quvchi va talabalarni vazifa atrofida keng muhokama qilishi uchun sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

---- Pedagogik maqsad - o'qitish, tarbiyalash va shu asosda talabalar shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularni kelajakda komil insn bo'lib yetishishga yordma berish.

---- Pedagogik nutq madaniyati va san'ati - talaffuzning aniqligi, ifodaviylik, obrazlilik va o'qituvchilarni ma'naviy va madaniy saviyasi bilan ajralib turishi. Har bir pedagog ifodali o'qish, talaffuz etish, to'g'ri va aniq gapirishi, jarayon davomida har hil obrazlarni qo'llashi katta ahamiyatga ega.

Pedagogik mahoratga erishish usullari. Pedagogik mahoratga erishish usullariga quydagilar kiradi:

- 1.Malaka oshirishning turli shakllarida ta'lim olish:
- 2.Mustaqil ravishda oz pedagogik bilimlarini oshirish:
- 3.Ilgor pedagogik tajiriybalarni organish:
- 4.Shaxsiy pedagogik tajiriybani tahlil etish va umumlashtirish:
- 5.Metodik hayot, sho'ba va birlashmalar ishida ishtirok etish:
- 6.Oshiq darslarga kirish va ularni tahlil etish, o'zaro darslarga kirish:

7. Pedagogik oqishlar, konferentsiyalar va seminarlar ishida ishtirok etish:

8. Pedagogik murabbiylik:

9. Metodik ishlanmalar tayorlash va boshqalar.

Pedagogik mahoratni oshirish manbalari. Orta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari pedagog kadrlari amalga oshiradigan uslubiy ishlari juda xilma-xil bolib ularning quydagi turlari mavjud:

-Jamoaviy uslubiy ishlar; pedagogik oqish, pedagogik kengash, uslubiy komissiyalar, ilg'or pedagogik tajiriybalar, muammoli seminarlar, ilmiy amaliy konferentsiyalar:

-yakka tartibdagi (shaxsiy) uslubiy ishlar; rahbar, pedagog va tarbiyashilarning mustaqil uslubiy ishlari; rahbar, pedagog va tarbiyashilarning oz ustida mustaqil ishlashi; rahbarlarning pedagog kadrlar bilan yakka tartibdagi uslubiy ishlar;

-o'quv uslubiy (pedagogika) xonasi . Ta'lim muassasalarining pedagog va maxsus fan oqtuvshilarining kasbiy mahoratini takomillashtirishda imkoniyatlari nihoyatda ulkan. Ammo ularni yagona maqsadga yonaltirish, ular faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish ta'lim muassasi rahbaridan shuqir bilim va tajiriybani talab qiladi. Pedagog kadrlarni malakasini oshirish tizimida ta'sirshanligi va ularga yaqinligi, vaq, kuchni, moddiy resurslarni iqtisod qilish hamda boshqa jihatlardan qulaylik bilan ajralib turgani oz ish jarayinida, yani ta'lim muassasalarida malaka oshirishdir.

Xulosa qilganda, pedagogik mahorat o'sib kelayotgan yosh avlodni o'qitish, o'qishga qiziqtirish, faqat bir yo'nalish bilan emas, uni turli tuman uslar bilan qiziqtirish orqali kelajakta komil inson etib tarbiyalashdir. Buning uchun o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratini oshirishi, nutq madaniyati va san'ati egallash, kasbiy bilimdonlikni yangilan borishi, yangi tizimlarni o'rganushi va o'quvchilarga o'rgatishi, yangi tizimlarni tahlil qilishi, o'quvchilar bilan muntazam muloqotda bo'lishini taqozo etadi. Shuningdek, pedagogik mahorati asoslari fanining paydi bo'lishi buyuk pedagog A.S. Makarenko aytganidekz bo'lajak pedagog talabalik davridan boshlab pedagogik mahorat sirlarini o'rgatishi, tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldar bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin deb bejizga aytmagan. Zero, komil insonni tarbiyalashda o'qituvchi mahorati juda ma'suliyatdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova. R. A. " Umumiy pedagogika" 440 bet.
2. Xodjayev. B. X. "Umumiy pedagogika" 310 bet
3. A.I. Avazboyev. Ya.U. Ismandiyarov.

KASBIY PEDAGOGIKA

OQUV QOLLANMA 191-192-bet